

TALABALARIDA SOG‘LOM TAFAKKUR SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ataxanova S.O.

O‘zDJTU, pedagogika va psixologiya kafedrası dotsent v.b., PhD

Annotatsiya. Ushbu tezisdá oliy ta‘lim jarayonida talaba-yoshlarda sog‘lom tafakkurni shakllantirishning pedagogik mazmunini ilmiy va amaliy o‘rganish asosida, mavzuning ko‘r qirrali ekanligi, uning qanday shart-sharoitlarda amal qilayotganligi, ya‘ni mavjud holatini, uning funksionalligi va o‘ziga xosligi o‘rganib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sog‘lom tafakkur, talaba-yoshlar, ma‘naviy, mafkuraviy jihat, diniy-estetik va axloqiy qarashlar.

Har tomonlama sog‘lom avlodni voyaga yetkazish va ayniqsa ko‘tarilayotgan mavzu, ya‘ni sog‘lom tafakkurni shakllantirishning pedagogik mazmuni doirasida fikr yuritish uning o‘ziga xos bir necha xususiyatlarini namoyon etadi. Biz oliy ta‘lim jarayonida talaba-yoshlarda sog‘lom tafakkurni shakllantirishning pedagogik mazmunini ilmiy va amaliy o‘rganish asosida, mavzuning ko‘r qirrali ekanligi, uning qanday shart-sharoitlarda amal qilayotganligi, ya‘ni mavjud holatini, uning funksionalligi va o‘ziga xosligini o‘rganib chiqdik. O‘rganish asosida pedagogik mavjud holatning kuyidagi o‘ziga xos xususiyatlarini aniqladik:

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasida sog‘lom va barkamol avlod orzusi yangi jamiyat, ya‘ni demokratik fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etish tamoyillariga uyg‘un holda rivojlantirildi va davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri qilib belgilandi. O‘zbekistonda sog‘lom avlod g‘oyasi o‘zida tarixiy milliy an‘analarni, zamonaviy qarashlarni, umumbashariy ilg‘or g‘oyalarni mujassam qildi va uyg‘unlashtirdi. Shu bois, sog‘lom tafakkur tushunchasi ham biz uchun, bir tomondan, demokratik va fuqarolik jamiyati taraqqiyoti bilan bog‘liq holda sog‘lom mafkuraviy va ijtimoiy tafakkur xususiyatlarini jamlashi, ikkinchi tomondan esa, mana shu qurilayotgan fuqarolik jamiyatida faol yashashga hozir bo‘lgan avlodlar tafakkuriga aylanishi darkor bo‘ladi.

Ikkinchidan, bugungi kunda ilm-fan taraqqiyoti, inson haqidagi tibbiy, ijtimoiy, gumanitar bilimlarning keskin o‘sib borishi, shu bilan birga, o‘zbeklar tarixida sog‘lom tafakkur borasidagi ming yilliklar davomida shakllantirilgan o‘ziga xos diniy-estetik va axloqiy qarashlarning mavjudligi ularning barchasini qayta anglash, umumlashtirish, bir tizimga keltirish, ularning o‘zaro muvofiqlashuvini ta‘minlash va zamonamiz talablariga mutanosiblarini tanlab olish, sog‘lom tafakkur borasidagi eng so‘nggi ijobiy qarashlarni yangi avlodlarga yetkazib berish vazifasini ko‘ndalang qo‘yadi. Demak, hozirgi kundagi vazifa, sog‘lom tafakkurning milliy va umumbashariy qadriyatlari borasidagi mavjud qarashlarni tanqidiy ishlab chiqish va keng targ‘ib etish zarur.

Uchinchidan, sogʻlom tafakkur uni amaliy tajribada, yaʼni koʻp millionli insonlar hayotida joriy etilishini talab etadi. Sogʻlom tafakkur faqat tafakkur holida qolib ketmasligi, balki keyingi bosqichda sogʻlom madaniyat, sogʻlom turmush tarzi va sogʻlom hayot darajasida qoʻllanilishi lozim. Tafakkur insonlar hayotida amaliy qoʻllanilgandagina, uning qoʻllanilishidan kelgan inson hayoti uchun foyda, inson hayotining salomatlikda samarali kechganligini isbotlay oladi. Demak, sogʻlom tafakkur mazmuni, kategoriyalari, uni shakllantirishning pedagogik tizimlari va jarayonlarining toʻgʻri anglanishi va toʻgʻri tanlanishi barobarida, sogʻlom tafakkurni qanday qilib, qaysi usul, vosita va yoʻllar bilan shakllantirish kerakligi masalasi pedagogik nuqtai nazardan yechish zarur boʻladi.

Ammo avval mavjud pedagogik sharoitda sogʻlom tafakkur qanday darajada, qanday tizimlar orqali, qaysi usullarda, qaysi omillarga eʼtibor bergan holda amal qilishi masalalarini oʻrganish talab qilinadi. Sogʻlom tafakkurni oliy taʼlim muassasalarida amal qilishi amaliy holatini oʻrganish uchun biz tadqiqot doirasida ikki omilga, yaʼni a) oʻquv jarayonida sogʻlom tafakkurni shakllantirish hamda ijtimoiy blok fanlari tarkibi masalasini hamda b) madaniy, maʼnaviy-maʼrifiy ishlar va tadbirlar orqali sogʻlom tafakkurni shakllantirish masalasini oʻrganib chiqdik.

Oʻzbek oilalarida mustaqillik yillarida islom axloqi va normalarining kuchayganligi, islom talablarini bajarishga boʻlgan ehtiyojning kundan kun ortib borayotganligi oʻzini yorqin koʻrsatadi. Ulardan namoz, tahorat, ozodalik, saronjom-sarishtalik, tanani va xulqni pokiza saqlash, hulq-atvor pokizaligi, roʻza tutish, diniy bayramlarni nishonlash, haj safarlarini nishonlash, qurbon hayitini nishonlash alohida oʻrin tutadi. Islom ahloqida tarannum etilgan axloqiy normalar bugungi kunda oʻzbek oilalarining asl axloqiy talablariga aylanib borayotganligi aniqlandi.

Tabiiy ravishda, sogʻlom tafakkur va sogʻlom turmush tarzi muammolari va masalariga bunday katta urgʻu berilishi ijobiy holat hisoblanadi. Ammo oʻtkazilayotgan tadbirlarning sifati va hajmi masalalari maʼlum eʼtirozlarni uygʻotadi. Chunki, birinchidan, oʻtkazilayotgan tadbirlarning koʻpchiligi koʻproq “xisobot” uchun oʻtkaziladigan tadbirlar sirasiga kiradi. Ikkinchidan, tadbirlarning aynan sogʻlom tafakkur va sogʻlom turmush tarziga bagʻishlanganlarida umumiy mavzular inobatga olingan boʻlib, mazkur umumiy mavzular talabalarni haqiqatan ham hayotiy pozitsiyasini oʻzgartirishga yoʻnaltirilmagan. Biroq, maʼnaviy-maʼrifiy tadbirlardan bugungi kun atqozo etayotgan talab aynan mana shunda, yaʼni butun bir yangi avlod tafakkurida inqilobiy oʻzgarishlarni amalga oshirish hisoblanadi. Uchinchidan, sogʻlom turmush tarzi boʻyicha oʻtkazilayotgan amallar juda kam sonli hisoblanib. Ular tabiiy ravishda sifat oʻzgarishlarga olib kelish uchun asos boʻla olmaydi. Talabalar ichida maʼnaviy ishlarning alohida mavzulari giyohvandlik va OITS kasalligining oldini olish masalalariga qaratilgandir.

Shuni ham ta'kidlash zarurki, sog'lom tafakkurning ma'naviy, mafkuraviy jihatlari yo'nalishlarida oliy ta'lim muassasalarida yetarli hajmdagi tadbirlar rejalashtirilgan bo'lib, bu xolat mutasaddi insonlarning mazkur mavzular dolzarbligini to'la anglab yetkanligidan dalolat beradi.

O'rganish jarayonida mazkur ta'lim dargohlaridagi madaniy va ma'naviy-ma'rifiy ishlar ko'lami, ular saviyasi va mavzusi, tarkibi sog'lom tafakkur, sog'lom turmush tarzi, salomatlik madaniyati kabi mavzularga ham bag'ishlanganligi aniqlandi. Ya'ni ko'rib chiqilgan ta'lim dargohlarining madaniy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejalalaridan sog'lom tafakkur, sog'lomlik aqidalari, sog'lom turmush tarzi, sport va jismoniy tarbiya bilan faol shug'ullanish, barkamol avlod mavzulari yetarli hajmda o'rin olganligi aniqlandi.

Mazkur tadbirlarni tadqiqot mavzusi nuqtai nazaridan o'rganilganda ularning yetarli hajmi, mavzuga aloqadorligi, talabalarning hammasini qamrab olinishi, qiziqarli tarzda talabalarning yosh differensiyasini inobatga olgan holda tashkil qilinishi, mazkur tadbirlarni tashkillashtirish va uyushtirish ishlariga talaba-yoshlarning o'zlari keng jalb qilinganligi, ular tafakkurida sog'lom tafakkurning shakllantirilishida qanday insoniy fazilatlarga e'tibor qaratilayotganligi kabi parametrlarga alohida urg'u berildi. Tabiiy ravishda, rejalashtirish orqali olib borilgan tadbirlarning saviyasi va samaradorligi stixiyali tarzda uyushtiriladigan mustaqil ta'lim va o'z ustida ishlash jarayonlaridan samaradorroq ekanligi aniqlandi. Chunki talaba-yoshlarning, ayniqsa viloyatlar kelib, Toshkentda yashayotgan hamda yotoqxonalarda turgan talabalarning darsdan tashqari faoliyati ko'pincha tartibsiz kechishi, sog'lom turmush aqidalariga keng o'rin ajratilmasligi, asosan rejalarda sog'lom tafakkur mavzularisiz ish olib borilishi aniqlandi.

Demak, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonidan tashqaridagi sog'lom tafakkurni shakllantirish faoliyatida har doim ham maqsadga yo'naltirilgan va pedagogik faoliyatning rejalashtirilgan tipi mavjud emas. Ayniqsa, talaba-yoshlarning o'quv jarayonidan keyingi davrdagi hayot tarzini tashkillashtirish hamda aynan mana shu hayot tarzini sog'lom tafakkur g'oyalariga yo'naltirish uchun hamma oliy ta'lim dargohlarida ham yetarli jismoniy tarbiya va sport infrastructuralari mavjud emasligi achinarli hol hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Каримова В. М. Сog'лом турмуш тарзининг ижтимоий психологик асослари // XXI асрда психологик саломатлик: муаммо ва ечимлар: Республика илмий-амалий конференция материаллари (15 май 2017 йил). – Фарғ'она: 2017. – Б. 5-8.
2. Каримова В.М. Ижтимоий психология / В.М. Каримова. – Тошкент: «Fan va texnologiya», 2012. – 172 б.
3. Забродин Ю.М. Психологическое консультирование / Ю.М. Забродин,

В.Э. Пахалян. – Москва: Эксмо, 2010. – 384 с.

4. Закирова М., Саидова О. Библиотерапия – киши психик саломатлиги усули сифатида // XXI асрда психологик саломатлик: муаммо ва ечимлар: Республика илмий-амалий конференция материаллари (15 май 2017 йил). – Фарғона: 2017. – Б. 255-256.